

INSONIYAT TARIXI – TARAQQIYOT TARIXI

NavDU “Milliy g’oya, ma’naviyat
asoslari va huquq” ta’lim yo’nalishi

bakalavr bosqichi 2-kurs talabasi

Maxmudova Sevinch

Ilmiy rahbar: Karimova Ra’no

Navoiy davlat universiteti

dots. v.b., f.f.f.d. (PhD)

Anontatsiya: Ushbu maqolada insoniyatning ijtimoiy taraqqiyoti haqida ma’lumot beriladi. Bunda insoniyatning qadimgi davridan bugungi kunga qadar kashfiyotlari haqida ham ma’lumot berilgan. Insoniyat tarixi davomida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida ko’plab kashfiyorlar amalga oshirilgan. Bu kashfiyotlar insoniyat taraqqiyotiga asos bo’lgan. Bu maqolada o’zbek xalqi ajdodlarining insoniyat taraqqiyotidagi o’rni alohida ta’kidlangan. Ushbu maqola asosida yoshlarni vatanimiz taraqqiyotida o’z o’rni borligi ta’kidlanadi.

Kalit so’zlar: insoniyat, taraqqiyot, renessans, kashfiyot, Markaziy Osiyo, me’ros, ajdodlar.

Анонтация: В этой статье представлена информация о социальном развитии человечества. Также рассказывается об открытиях человечества с древнейших времен до наших дней. На протяжении всей истории человечества было сделано множество открытий во всех сферах общественной жизни. Эти открытия были основой человеческого прогресса. В этой статье подчеркивается роль предков узбекского народа в развитии человечества. В этой статье подчеркивается роль молодежи в развитии нашей страны.

Ключевые слова: человечество, развитие, ренессанс, открытия, Средняя Азия, наследие, предки.

Annotation: This article provides information on the social development of humanity. It also tells about the discoveries of mankind from ancient times to the present

day. Throughout the history of mankind, many discoveries have been made in all spheres of social life. These discoveries were the foundation of human progress. This article highlights the role of the ancestors of the Uzbek people in the development of mankind. This article highlights the role of youth in the development of our country.

Key words: humanity, development, renaissance, discoveries, Central Asia, heritage, ancestors.

Insoniyat tarixi bu – izlanishlar, kashfiyotlar, yangilanishlar va taraqqiyot tarixidir. Olimlar tomonidan insoniyatni rivojlanish tarixini bir necha davrlarga bo'lib o'rganishadi. Har bir davrning o'ziga xos kashfiyoti bo'ladi. Insoniyatning ilk qadimgi davrlaridan bo'lgan paleolit davrining so'nggi davri inson ijtimoiy hayoti uchun muxim bo'lgan turar joy qurilishi, hayvon terisidan kiyim-kechak tayyorlash, sun'iy olovni hosil qilish kabi kashfiyotlarni amalga oshirildi. Mezolit davrida esa o'q-yoyning kashf qilinishi insoniyat hayotida katta yutuqlarni amalga oshirishda imkoniyat yaratdi. Buning natijasida neolit davriga kelib ishlab chiqaruvchi xo'jalik hisoblangan dehqonchilik va chorvachilikka o'tildi. Bu o'z navbatida hunarmandchilikni rivojlantirishga zaruratni yuzaga keltirdi. Bu bilan insoniyat to'xtab qolmadi, izlanish natijasida tabiat bergan in'omlarni o'zlashtirish natijasida misdan foydalandi. Insoniyatga berilgan eng yuksak in'om aqlga tayangan holda bronzani kashf qildi. Aqliy imkoniyatlarini cheksizligidan foydalangan holda g'ildirakni kashf qildi. uning asosida kulolchilik charxi va ilk sun'iy transport vositasi bo'lgan arava yaratildi. Insoniyat izlanishda davom etib, yanada buyuk o'zgarishlarga asos bo'luvchi temirni qashf qildi.

Shu tariqa insoniyat o'z rivojlanishini davom ettirib, qachonlardir afsona sifatida ta'riflab kelingan osmon jismlari koinotni zabt etdi va ular ustida o'z tadqiqotlarini amalga oshirib kelmoqda.

Insoniyat taraqqiyoti faqatgina moddiy borliqdan iborat emasligi e'tirof etgan holda, qadimgi davrlardan boshlab ma'naviy tafakkurini ham namoyon eta bordi. Buning zamirida diniy qarashlar, tasviriy san'at, musiqa, me'morchilik kabi o'ziga xos bir qancha madaniyat qirralari yaratildi. Ushbu madaniyatning bir qancha sohalari borasida ham ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi.

Shuning bilan birga insoniyat o'z taraqqiyoti davomida birlashuv, jamoaviylik kabi extiyohlarga duch kelda. Buning negizida taraqqiyotning yana bir turi siyosiy taraqqiyotga asos soldi. Buning mevasi o'laroq davlat vujudga keldi.

Insoniyat tomonidan erishilgan bu yutuqlar bugungi kunda turli atamalar bilan izohlashga harakat qilinmoqda. Ya'ni, sivilizatsiya – bu dunyo xalqlarining turli davralarda hayotning hamma sohalarida, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarida erishgan yutuqlari hamda taraqqiyot bosqichiga ko'tarilish jarayonlaridir.

Bu jarayonlar esa insoniyatning paydo bo'lishi va rivojlanishi, jamiyatning rivojlanish darajasi, moddiy va ma'naviy madaniyatning yuksalishi, kabilalar va xalqlar o'rtasidagi uzaro munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Renessans – fransuz tilidagi “renaitre” so'zidan kelib chiqqan – qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug'ilmoq ma'nolarini anglatadi. Ushbu so'zni sinonimi sifatida “uyg'onish” so'zini ham ishlatamiz. Ushbu atamalar kelib chiqishiga ko'ra unchalik uzoq davrga borib taqalmaydi. Lekin ushbu so'zlar dastlab ishlatilgan davr va ma'no, mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda asosan Sharq uyg'onish davri yoki yevropa uyg'onish davri bilan chegaralanamiz. Aslida insoniyat yer yuzining turli hududlarida va turli davrlarda o'z davri uchun buyuk kashfiyotlarni amalga oshirgan. Ijtimoiy faollik natijasida taraqqiyotning asosi bo'lgan buyuk kashfiyotlar vujudga kelgan o'z o'rnidan tashqari boshqa hududlar taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan.

Tarixiy tajribaga asoslangan holda yangilanish, taraqqiyot tushunchasini anglatuvchi renessansga asosan ikki omil asos bo'la oladi. Birinchidan, extiyoh; ikkinchidan, ijtimoiy-siyosiy muhit. Yuqorida biz aytib o'tgan qadimda insoniyat tomonidan qo'lga kiritilgan yutuqlarga extiyoh sabab bo'ldi.

Davlatchilikning vujudga kelishi natijasida ommaning moddiy va ma'naviy extiyojini qondirish shakllandi. Davlat o'z funksiyasidan kelib chiqqan holda bunga sharoit yaratadi va qo'llab quvatlaydi. bu o'z navbatida xalqning farovonligi va davlatning taraqqiyotini belgilaydi.

Bugungi kunda davlatimiz raxbari tomonidan asosiy strategik vazifa qilib qo'yilgan uchinchi Renessansga erishishga yuqorida aytganimizdek mamlakatimizda o'ziga xos sharoit yaratilmoqda. Tarixan biz ikki Renessansni boshdan kechirdik: birinchisi IX —

XII asrlar, ikkinchisi XIV asr oxirgi choragi — XVI asr birinchi choragi. Birinchi Renessansda yurtimizdan Farg'oniy, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy kabi buyuk daholar, buyuk muhaddislar — Buxoriy, Termiziy, mutakallimlar — Moturidiy va Abul Muin Nasafiy hamda boshqa atoqli dunyoviy va diniy allomalar shuuri olamni yoritdi.

Ikkinchi Renessansda — Ulug'bek, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumi, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Behzod, buyuk me'morlar, bastakorlar, musavvirlar, tarixchilar chiqib, bugun ham dunyoni lol qoldirayotgan asarlar yaratdilar.

Bu ikki renessansdan dunyo xallari baxramand bo'ldi, o'z renessansiga asos soldi. Albatta bu yutuqlarning zahirida birinchidan, iliq ijtimoiy-siyosiy muhi, ikkinchidan, yuksak ma'naviy tafakkur turadi. Albatta biz o'z oldimizga qo'ygan maqsad – uchinchi renessansga erisha olamiz, bizga bunda tarixiy tajriba, bilim va tafakkur yetadi. Ammo, shuni hech qachon yoddan chiqarmasligimiz kerakki, har qanday taraqqiyot yuksak mahnaviyatga asoslanmas ekan uning tanazzuli yaqin. Biz erishmoqchi bo'lgan uchinchi renessans albatta milliylikimiz, qadriyatlarimiz, umuman olganda tarixan shakllanib kelgan milliy mentalitetimizga asoslanadi. Biz erishmoqchi bo'lgan uchinchi renessans tarixda bo'lgani kabi biz tomonimizdan emas, albatta kelajak avlodlar tomonidan e'tirof etiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda ushbu yuksaklikka intilishda iliq ijtimoiy-siyosiy muhitni yanada kuchaytirish, shuning bilan birga bu yuksaklikka shu yurt farzandiman degan har bir kishi o'z hissasini qo'shishi muhim ahamiyatga egadir.